

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

**Totliyev O‘.X.**

Samarqand davlat universiteti doktoranti

### **ANNOTATSIYA**

Maqlolada tavsifli modellar iyerarxiyasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmini ishlab chiqish va asoslashda interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqish haqida fikr yuritiladi. Pedagogik oliv o‘quv yurtlarida tahsil oladigan talabalar o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va interfaol ta’lim metodlari asosida tashkil etilsa, samaradorlik jihatlari va ilmiy ahamiyati oshib boradi.

**Kalit so‘zlar:** tavsifli modellar iyerarxiyasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol ta’lim, tayanch kompetensiyalar.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПО ФОРМИРОВАНИЮ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ**

**Тотлиев.Ў.X.**

докторант Самаркандского государственного университета

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается иерархия описательных моделей на основе интерактивных методов и педагогических технологий при разработке и обосновании механизма совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов по формированию у учащихся базовых компетенций. Результативность и научная значимость студентов, обучающихся в педагогических вузах, возрастают, если учебно-воспитательный процесс организован на основе педагогических технологий и интерактивных методов обучения.

**Ключевые слова:** иерархия описательных моделей, педагогические технологии, интерактивное обучение, базовые компетенции.

## IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING IN THE FORMATION OF BASE COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Totliyev O.Kh.**

doctoral student of Samarkand State University

### ABSTRACT

The article reflects on the development of the hierarchy of descriptive models on the basis of interactive methods and pedagogical technologies in the development and justification of the mechanism for improving the methodological training of future primary school teachers in the formation of base competencies in students. If students studying in pedagogical higher educational institutions are organized on the basis of pedagogical technologies and methods of interactive education in the educational process, the effectiveness aspects and scientific significance increase.

**Keywords:** hierarchy of descriptive models, pedagogical technologies, interactive education, base competencies.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmi pedagogik texnologiyalar asosida qurish masalasiga to‘xtalar ekanmiz. Avvalo, uning rivojlanish jarayoni masalasi va olimlar tomonidan bildirilgan qarashlarga alohida to‘xtalib o‘tamiz. “Pedagogik texnologiya” atamasi olimlar tomonidan turlicha talqin etib kelingan: N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva, O‘.Q.Tolipov, D.Ro‘ziyeva, V.P.Bespalkov, V.M.Monaxov va boshqalar uni kommunikasiya jarayoni yoki o‘qitishni yaxshilash uchun bixevoiristik metodlar va tizimli tahvilni qo‘llashdan iborat bo‘lgan o‘quv vazifasini bajarish usuli sifatida tushunadilar.

Talabalarda xosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasi kompetensiyaning uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq sanaladi. Biz tadqiqot ishimizda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarining faolligi, tashabbuskorligi, muammoning yechimi to‘g‘risida o‘z mustaqil qarashlari bilan javob bera olish psixologik sifatlari, mashg‘ulot olib borish jarayonida interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri tanlangani, talabada motiv-motivasiyaning ijtimoiylashgani bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagogik texnologiya deb, O.S.Grebenyuk quyidagicha ta’rif berib o‘tadi: “Pedagogik texnologiya – bu qoidalar va ularga muvofiq bo‘lgan o‘quvchining

rivojlanishi, ta’limi va tarbiyasiga ta’sir etishning pedagogik usullari majmui[25; 160 - b.]”.

N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayevalar pedagogik texnologiyaga quyidagi ta’rif berib o’tadi: “pedagogik texnologiya-bu o‘z oldiga ta’lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo‘yishni, texnika va inson resurslarini va ularning o‘zaro ta’siri aloqasini hisobga olgan holda butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli yondashuvidir” deb ta’kidlaydi. Olimlar tomonidan pedagogik texnologiyaning maqsadi va bosh vazifasiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

Ta’lim texnologiyasi avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlit mazmunini hamda oldindan loyihalashtirish orqali yagona tizim asosida bosqichma-bosqich, amaliyatga joriy qilish, aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari, usullari va ta’lim vositalarini tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish va ta’lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyaning maqsadi – “ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim jarayonning zaruriy samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir”. Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – “ommaviy ta’lim sharoitida “oddiy” pedagoglarga o‘qitishning yetarli samarasiga erishishni ta’minlovchi o‘quv jarayonini yaratish hisoblanadi” deb ta’kidlaganlar.

Mamlakatimiz olimlaridan O’.Q.Tolipov, D.I.Ro‘ziyevlar ta’lim tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzallliklari to‘g‘risida to‘xtalar ekan, texnologik yondashuv orqali ta’limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochish masalasida quyida keltiriladigan imkoniyatlarga to‘xtalgan:

- pedagogik samarali boshqarish;
- mavjud amaliy tajribani ilmiy asosda tahlil etish va qo‘llash;
- ta’limiy va ijtimoiy - tarbiyaviy muammolarni yaxlit hal etish;
- shaxs rivojlanishi uchun qulay sharoitni ta’minlash;
- shaxsga nisbatan bo‘ladigan salbiy ta’sirlarni kamaytirish;
- resurslardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq samarador texnologiyalarni yaratish;
- ijtimoiy pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish;
- natijalarni yuqori aniqlikda hal etish kabi, vazifalariga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Pedagogik ta’lim-tarbiyada jarayonning muhim xususiyat-laridan yana biri talabalar egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar hamda nazariy bilim va tushunchalar, qoidalar tizimi kundalik xizmat faoliyatining asosini tashkil etadi. Ular O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati fani orqali ta’lim - tarbiya jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini ijtimoiy – ma’naviy tarbiyaviy, seminar – treninglar, ijtimoiy loyihaviy tadbirdarda qo‘llaydilar. O‘zbekistonni

rivojlantirish strategiyasi: Fuqarolik jamiyati fanining ta’limda sifat – samaradorligini oshirishda o‘qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashg‘ulot jarayonida innovation pedagogik tenologiyalar-dan foydalanib olib borishda avvalo, talabaga mustaqil egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar, pedagogik-psixologik jihatdan keng ma’lumotlarni tahlil qilish, qobiliyat, pedagogik tafakkur va pedagogik odob, pedagogik texnika, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ma’naviy yetuklik, tashkilotchilik, matonat, pedagogik layoqatga ega bo‘lish, talabchanlik, qat’iy intizom kabi sifatlarni tarkib toptirish eng asosiy sifatlardan hisoblanadi [2]. Talabalar o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishda psixologik tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi. Chunki talabalarda pedagogik-psixologik sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonida, psixologik sifatlar orqali talabalar ma’naviy-ruhiy, ongli faoliyat yuritishga maqsadni yo‘naltiradi [4]. Talaba shaxsi aynan psixik jarayonlar bilan shaxs sifatida o‘zgarishlari takomillashib borishi bilan yuzaga chiqadi.

G.K.Selevko [3] pedagogik texnologiyaga asosiy ta’rif sifatida quyidagicha ifodalagan: “Pedagogik (ta’limiy) texnologiya – bu ilmiy asosda qurilgan, vaqt va fazoda dasturlashtirilgan va belgilangan natijalarga olib keluvchi pedagogik jarayonning barcha komponentlarining ishlash tizimidir”.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda metodik tayyorgarligini takomillashtirishda avvalo ularda ijtimoiy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish ham muhim o‘rin tutadi. B.Shermuhammadov o‘z tadqiqot ishida ijtimoiy hamkorlik masalasiga to‘xtalar ekan: ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarning umumiyligi maqsad yo‘lida birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishi, o‘zaro hamjihatligidir deb ifodalagan.

Talabalarga ta’lim berishda interfaol metod “Menga so‘z bering”, “Skarabey” texnologiyalari orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmi sifatida ilgari surilsa talabalarning shaxsiy-fikr va mulohazalarni bildirishda aniq dalillar bilan isbotlashi ko‘nikmasi, o‘z fikrlarini himoya qila olishi, mantiqiy tahlil asosida xulosalarni ilgari surish qobiliyatları shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonini mazmunli tashkil etishda texnologiyaning konseptual asosi bo‘lib, statik va darajali modellar iyerarxiyasi orqali ifodalangan, talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar g‘oyasi asosiy o‘rin egallaydi.

Biz taklif etgan sillabus texnologik modelda ifodalangan pedagogik sharoitlarni aniqlashtirish orqali, quyidagi asosiy komponentlarni ajratamiz: maqsadli komponent ortidan Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitish o‘quv fani mazmunining imkoniyatlaridan foydalanishni, tayanch kompetensiyasining erishilgan darajasi tashhisini o‘tkazish, ta’lim muassasasining demokratik hayot tarzini qurish, talabalarga o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini o‘quv jarayonida faol fuqarolik faoliyatida amalga oshirish imkoniyatini “Skarabey” (“Qo‘ng‘iz”) texnologiyasi asosida tashkil etish ham talabandan o‘z kobiliyatini, xotirasini, shuningdek, yechimini topish uchun maqsad qilingan muammoni hal kilishda mustaqil fikr-mulohazalarini ochiq, erkin ifodalash ko‘nikma va malakasining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Talabalar o‘quv-tarbiya jarayonida ushbu texnologiyani nullashi, o‘z bilimi sifati, o‘zlashtirish darajasini xolisona baholay olishi, yechimini kutayotgan mavzu haqidagi tasavvuri oshirishi, o‘z imkoniyati va salohiyatini yuqoriga ko‘tarishda alohida o‘rin tutadi. Ushbu texnologiya doirasida talabalar turli kreativ g‘oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalashi, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniklashda samarali usul sanaladi. Chunki, uning yordamida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik sifatlarni rivojlantirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu texnologiyani o‘quv-tarbiya mashg‘ulot jarayonida qo‘llash talabaning ichki-imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ijtimoiy faollik, talabchanlik, tashabbuskorlik, mantiqiy tahlil asosida fikr-mulohazalar yuritish, siyosiy onglilik, huquqiy madaniyatilik, fuqarolik pozisiyasini kabi sifatlarni rivojlantiradi. Mazkur texnologiya oliy ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy faoliyatida amalga oshirilishi kerak. O‘quv mashg‘ulot faoliyati davomida talabani uning uchun ahamiyatli bo‘lgan bilishga oid vazifani tanlash, uni hal etishning metodlari va vositalarini ongli tanlashga undaydigan, shu tariqa har bir talabani bilishga oid faoliyatning faol sub‘yektiga, o‘quv mashg‘ulotini esa fuqarolik xulqi modeliga aylantiradigan muammoli interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bilan rivojlantiruvchi o‘qitish tizimini qurish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish doktorlik dissertatsiya avtoreferati. T.: 2022-y. 78 b.
2. Aripov M., Fayzieva M., Dottoev S. Web texnologiyalari / O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. 17.5 b.t.
3. Абалаев Р.Н. Методика проектирования компьютерного обучающей среды для подготовки спесалистов по управлению технологических процессами: Автореферат дис. конд. пед. наук. – Тамбов, 2000

4. Абдукадиев А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: Автореферат дис. докт. пед. наук. – Тошкент, 1990.
5. Абдуллаева Б.С. Развитие информационной компетентности будущих учителей начальных классов. –Т. 2020. С. 352-356.
6. M.E.Mamarajabov, B.B.Abdullayev To develop students' skills and abilities to use intelligent systems in e-learning environment. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 6, June. (2022) 528-534-betlar.